

ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR SYUJETI HAQIDAGI TALQINLAR

Z. Tojimatova

FDU o'qituvchi

M. Erkinova

FDU talaba

Annotatsiya: *Bu maqolada syujet va uning tarkibiy qismlari haqida ba'zi mulohazalar bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *syujet, epilog, tugun, kulminatsiya, yechim, xronikali, konsentrik, assotsiativ.*

Syujet fransuzcha “predmet”, “asosga qo'yilgan narsa” ma'nosini anglatadi. Badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.¹² Adabiyotshunosligimizda syujet masalasi bir qator olimlar tomonida tahlilga tortilgan. Syujet ustida tadqiqot olib borgan dabiyotshunos olim A.Rahimov: “syujet bu kitobxonni muayyan muhitga olib kiradigan, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini ko'rsatadigan voqealar sistemasidir”, - deydi. E.Xudoyberdiyev: “syujet deganda asardagi voqealar tizmasi tushuniladi, “syujetli asar”larda yaxlit hayot manzarasi bilan bog'liq holda biron muhim ijtimoiy ziddiyat badiiy tadqiq etiladi”, - deb ta'rif beradi. H.Umurov: “syujet deganda, asar qahramonlari hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, to'qnashuvlar, o'sisho'zgarishlar tushuniladi” , - deb ta'kidlaydi. A.Ulug'ov esa, “asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi syujetdir” , - deya izohlaydi.

Syujet o'zining mohiyati jihatidan yaxlit bir butunlik hisoblanadi, tabiiyki u butunlik sifatida tarkibiy qismlardan iborat. Bir guruh adabiyotshunoslar: Dilmurod Quronov, Izzat Sulon, A.Ulug'ov syujet beshta tarkibiy qism: ekspozitsiya, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechimdan tashkil topgan desalar, ikkinchi guruh olimlar (H.Umurov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev) esa syujetni yettita element: prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, epilogdan tashkil topgan deb, ko'rsatadilar. Menimcha ham, syujet yettita elementdan tashkil topgan va ular quyidagilar:

1. **Prolog** – muqaddimada yozuvchining niyati, maqsadi yoki tasvirlamoqchi bo'lgan voqealarning qisqacha bayoni beriladi. Misol uchun “O'tkan kunlar” romani prologi quyidagicha: “ Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a,

¹² D.Quronov, Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent 2004 – 100-b.

xalqimizni shu zamonning “Tohir-u Zuhra”lari, “Chol darvesh”lari, “Farhod-u Shirin” va “Bahromgo’r”lari bilan tanishtirishga o’zimizda majburiyat his etamiz”.

2. **Ekspozitsiya** – dastlabki holatda asarda yuz beruvchi voqealarning o’rni, joyi asar qahramonlarining harakatlariga turtki beruvchi voqealar tasvirlanadi. “O’tkan kunlar” ekspozitsiyasi quyidagicha: “1264nchi hijriya, davl oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakda shom azoni eshitiladir... Darbozasi sharqi-janubig’a qaratib qurilg’an bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikkita hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to’la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo’shab hujralariga qaytqanlar, ko’b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg’ul, shuning uchun kunduzgiga qarag’anda saroy jonlik: kishilarning shaqillab so’zlashishlaari, xoxolab kulisshlari saroyni ko’kka ko’targudek...” Ekspozitsiya syujetning ilk va sokin holatidir.

3. **Tugun** – badiiy asardagi harakatning boshlanishi, konfliktning boshlanish jarayoni. “O’tkan kunlar”dagi konflikt Otabek va Xomidning uylanish to’g’risidagi munozarasi hisoblanadi. Mana shu munozaradan tugun kelib chiqadi, ya’ni Otabekning Kumushga muhabbati va Xomidning ham Kumushdan umidvorligi to’qnashgan joy. Tugun harakatni aniqlashtiradi, voqeaning asosli va shiddatli bo’lishiga turtki bo’ladi.

4. Tugun va konfliktlarning asta-sekin ochilish va hal bo’lish jarayoni syujetning **voqealar rivojini** tshkil etadi.

5. Konflikt va voqealar rivoji o’tkirlana borib, syujetda juda qaltis vaziyat yuzaga keladi. Bu holat **kulminatsiya** deb ataladi. Yusufbek hoji bilan Azizbek orasidagi kurashning eng baland cho’qqisi Toshkent xalqining Yusufbek hoji rahbarligi ostida qo’zg’alon ko’tarishidir.

Otabek, Kumush, Zaynab munosabatlaridagi kulminatsiya – Zaynabning o’z raqibasini zaharlashga qasd etishi.

6. **Yechim** – tugunda maydonga kelib, syujetda o’z rivojini topgan konfliktning hal etilishi, xarakterlar kurashining yakunlanishi. “O’tkan kunlar”da Homid va uning sheriklarining o’limi, Kumushning vafoti va Otabekning shahid bo’lishi yechimdan dalolat beradi.

7. Yechim asarda o’rtaga qo’yilgn asosiy muammoning hal etilishi sababli undan keyin asosiy voqea davom etmaydi, faqat mazmunning to’la bo’lishi uchun qo’shimcha ma’lumotlarni o’quvchiga yetkazishga qaratilgan **epilog**, ya’ni xotima keladi.

«O’tkan kunlar»dagi xotima shundaydir:

«Keyingi Marg’ulon borishimda yaqin o’rtoqlardan Yodgorbek to’g’risini surishtirib

bildim: Yodgorbek ushbu asrning o’n to’qquz va yigirmanchi ochliq yillari

miyonasida vafot qilib, undan ikki o’g’ul qolibdir. O’gullaridan bittasi bu kunda

Marg’ilonning mas’ul ishchilaridan bo’lib, ikkinchisi Farg’ona bosmachilari orasida

ekan. Bu kunda nomu-nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deydilar.»

Syujet qurilishi va ularni tiplarga ajratish masalasida adabiyotshunoslarining nazariy qarashlarida turlichalikni kuzatishimiz mumkin. O'zbek adabiyotshunosi H.Umurov syujetni uch turga: xronikali, konsentrik va xronikal-konsentrik syujetga ajratadi. H.Umurov “xronikal-konsentrik syujetda bir nechta yo'nalishdagi yirik voqealar bir-biriga mustahkam bog'lanadi, hayot panoramasi keng va chuqur tahlil etiladi” – deb ta'riflaydi. D.Quronov o'z qarashlarida syujet voqealarining o'zaro munosabatiga ko'ra ikki turga: xronikali va konsentrik syujetga ajratadi. Syujet tiplarini izohlarkan A.Rahimov konsentrik syujetni “tadqiqot syujet” deb ataydi. Unda voqea hikoya qilinmaydi, o'tmishga ham murojaat etilmaydi, biror hodisa sabablarini tahlil qilish jarayonida sodir bo'lgan voqealar kitobxon ko'z o'ngida jonlanadi deb izohlaydi. E. Xudoyberdiyev esa, besh turga: xronikali, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ, sintetik kabi syujetga ajratadi. Bir narsani unutmasligimiz kerakki, badiiy asarlarda syujetning tiplari sof holda uchramaydi.

Xulosa qilib aytganda, “Adabiyotning uchinchi elementi syujetdir, ya'ni odamlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiya (yoqtirish) va antisimpatiyalar (yoqtirmaslik), umuman kishilar o'rtasidagi munosabatlar — u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir” (M. Gorkiy). Adib syujet yaratayotganda o'zi yaxshi biladigan, hayotda ko'rgan, mukammal o'rgangan voqeani asos qilib oladi. Yozuvchining ayrim hikoyalarida syujet voqealari keskin rivojlanadi, u kitobxonning qiziqishini oshiradi, unda syujet unsurlari aniq tasvirlanadi, ayniqsa yechim salmoqli ahamiyatga ega bo'ladi. Deyarli barcha syujetning asosiy elementlari syujet qurilishida turli xil shaklda, ko'rinishda berilishi mumkin, ba'zan bu zanjirning ba'zi qismi o'tkizib yuborilishi (tashlab ketilishi) mumkin. Biz uchun eng avvalo, ularning aniq mazmuni, ya'ni yozuvchi qanday voqea, ijtimoiy munosabatlarning qaysi qismini tugun, kulminatsiya sifatida bog'lashi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli asarning syujetli bo'lishi uning estetik qimmatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent “O'qituvchi” – 1986
2. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish.
3. H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti – 2004
4. K. Turdiyeva. Asar syujeti va kompozitsiyasi haqida. Til va adabiyot ta'limi-2001